

HABIB SA'DULLA SHE'RIYATINING MUMTOZ ADABIYOTDAGI O'RNI

A.F. Muxtorjonov
NamMQI magistranti

Anotatsiya

Ushbu maqolada Habib Sa'dulla mumtoz she'rlarining umumiy tasnifi keltirilgan.
Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, g'azal, ruboiy, o'xshatish, isteora, she'riyat.

Namanganning chin o'g'loni Habib Sa'dullaning she'riyatning deyarli barcha sohasida bir xil qalam tebratgani, barcha yo'nalishlarda muxlislari qalbini zabt etgani tahsinga sazovor. Ayniqsa, Habib Sa'dullaning mumtoz adabiyotdagi o'rniga alohida to'xtalar ekanmiz, u yaratgan o'xshatish va isteoralarga boy g'azallar, sermazmun ruboiylarni har qaysi she'riyatga oshufta qalb o'qisa, o'zbek mumtoz adabiyotiga yanada mehri oshadi. Keling quyida ba'zi g'azallar va ruboiylar tasnifi bilan tanishaylik:

Qolsa derdim o'rtamizda zora gap,
Bo'ldi-ku el ichra, yor, oshkora gap.
Bilmayin bir kun dahandan chiqdi-yu,
Har quloqda yangradi nog'ora — gap.
Bitta nozik gap edi ul aslida,
Har og'izda shishdi-ku, bechora gap.
Sizni oppoq ayladi yurt ichrakim,
Bizni qilmish, voajab, qop-qora gap.
Ne ajab, bo'lmish g'animga qurol,
Etgali oshiq dilim sadpora gap.
Dilda turganda muqaddas ganj edi,
Tilga chiqqach, etdi ko'p ovora gap.
“Gap”ni yozdim gapchidai bezor bo'lib,
Qolsa endi o'rtamizda zora gap.

Shoir g'azalning boshidan oxirigacha odamiylikning ba'zi bir kamchiliklarini eslab o'tmoqda. Masalan, birinchi juftlikdagi baytlarga razm solsak,

Qolsa derdim o'rtamizda zora gap,
Bo'ldi-ku el ichra, yor, oshkora gap.

deya, shoir ikki muhabbat kishilarini birining birisiga “o'rtamizda qolsin” sharti bilan aytgan gapi, sir saqlashni bilmagan yor xatosi bilan tashqariga, el ichiga ovvoza bo'lganini aytmoqda. Albatta, sir saqlash ham insoniy qobiliyatlardan, uning

bo‘lmasligi kamchiliklardan biri. Kamchiliklar esa, qobiliyatdan ko‘ra inson tabiatiga xosroqdir.

Bilmayin bir kun dahandan chiqdi-yu,
Har quloqda yangradi nog‘ora — gap.

Yorga ishonib aytilgan gap, uning dahanidan, ya’ni og‘zidan chiqadi-yu, gapga qiziquvchi olomon orasida har quloqda yangraydigan nog‘ora tovushiga o‘xshab qoladi. Shoir aynan shu joyda ham insoniy kamchiliklardan biriga ishora qilgan. Hammamiz bilamizki, inson zoti juda qiziqarli bir gap eshitsa, uni boshqa bir kishiga aytib, “qahramon” bo‘lishni xohlab qoladi. Mayli, agar kishilar orasida axborot sofliqini yo‘qotmasa, bu gap egasiga ortiqcha tashvish keltirmaydi. Biroq gap har og‘izda qaynar ekan, kishilar haqiqiy ma’lumotga o‘zlarinikini aralashtirib, birga o‘nini qo‘shib yetkazishadi.

Bitta nozik gap edi ul aslida,
Har og‘izda shishdi-ku, bechora gap.

Ha, shunday. Shoir ya’na yuqoridagi fikr bilan g‘azalni davom ettirmoqda. Bu yerda “nozik” so‘zidan murod o‘sha gapni ko‘ngil egasi uchun nozikligi yoki bu gapni qisqa ammo sarmazmun ekanligiga ishora bo‘lishi mumkin. Ana o‘sha yo nozik gap yoki qisqa gapni odamlar, to‘qimalar bilan to‘ldirib, sun‘iy shishirib, bir-birlariga yetkazishadi, ovoza qilishadi.

Sizni oppoq ayladi yurt ichrakim,
Bizni qilmish, voajab, qop-qora gap.

Gap, el orasida tarqalgach, kerakli yolg‘onlar bilan boyigach albatta, o‘sha gapni aytgan uchun g‘ussa keltirishdan nariga o‘tmaydi. Ana o‘sha sirni lozim darajada saqlay olmagan esa kerakli pozitsiyadan chiqib ketishi ham mumkin.

Ne ajab, bo‘lmish g‘animlarga qurol,
Etgali oshiq dilim sadpora gap.
Dilda turganda muqaddas ganj edi,
Tilga chiqqach, etdi ko‘p ovora gap.

Turklarning bir mashhur maqolini aynan shu yerda eslab ketsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Ikki kishi bilgan sir, sir emas”. Gapning ham sir kabi qiymati bo‘ladi. Shoir gapni hamma bilishini xohlasa bozorlar-u, rastalar orasidagi haloyiqqa aytsa ham bo‘lardi. Biroq u aynan yorga o‘z sirini gap ko‘rinishida omonat qilmoqda. Agar bu omonat tashqariga zum chiqsa bo‘ldi, qaysi g‘animning qulog‘iga yetib borsa, o‘sha sir gap egasi uchun katta qurol bo‘ladi. Shuning uchun ham gapni dilda muqaddas ganj bo‘lib turgani xoh u o‘ziniki, xoh yorniki bo‘lsin ko‘ngil egalari uchun foydalidir. Bundan tashqari gapning nafaqat sir xususiyati bor, balki tasdiq xususiyati ham yo‘q emas. Ana o‘sha sevgini ifodalovchi tasdiq dilga muqaddas ganji naqsh

bo‘lib turishi tahsinga sazovor ishdir. Tilga chiqqach, begona kishilarga yetib borgach shubhasiz, yuqoridagidek muammolarni keltirib chiqarishi tayin.

“Gap”ni yozdim gapchidai bezor bo‘lib,
Qolsa endi o‘rtamizda zora gap.

Shoir she‘rni ajoyib bir usulda tugatmoqda. Oshiqning asror bir ko‘ngildan boshqasiga o‘tsayu, yor tilidan tashqariga chiqsa, qanday oqibatlarga olib kelishini, so‘zamon gapchidek, shoir she‘riyat ixlosmandiga uqtirmoqda. Va albatta g‘azalning so‘nggi misralarini xuddi boshidagidek tugatmoqda. Bu ham albatta, mumtoz adabiyotdagi o‘ziga xos she‘riy usul bo‘lib, g‘azal jozibasiga ko‘rk qo‘shadi.

Habib Sa‘dulla g‘azalnavisligidan tashqari ruboiylari orqali vatanparvar inson sifatida o‘quvchilar yodida ham qolgan.

Ko‘nglimni Vatan muhabbati soz etmish,
Siz dilni vafoni kuyla, deb soz etmish.
Kuylashda mening sozim agar sahv etsa,
Bu kuychi Vatan sozim olib soz etmish.

Ayna ushbu ruboiysida, mashhur shoir ko‘nglida vatan sevgisi yuqori pallada ekani, dilida, “vatan uchun vafoni kuyla” deya atalgan hayqiriq borligini, umuman olganda. Sozi ila vatan sevgisini bor ovozi bilan kuylashni aytmoqda.

Tug‘ilgandan shirin tilga bo‘ldim habib,
Har pokiza ochiq dilga bo‘ldim habib.
Dilim ochib, unga elim joyladimu
Shu yo‘l bilan o‘zim elga bo‘ldim habib.

Yana shunday vatanparvarlik ruhida yozilgan ruboiylardan biri. Shoir hamma kabi tug‘ilganidanoq ona allasidek go‘zal taronalar, shirin so‘zlarga muhabbat qo‘ygani, ochiq va pokiza dillarni sezsa, sevgani, Diliga vatan mehrini pirovard maqsad qilib joylash ortidan, “vatan kuychisi”, Habib Sa‘dulla sifatida elga tanilganini keltirmoqda.

Darhaqiqat Habib Sa‘dulla Vatan kuychisi, xalq vakili, haqiqiy shoir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.Ermanbetova, “Habib Sa‘dulla lirikasi”- Muharrir, Toshkent, 2012
2. Xurshid Davron kutubxonasi
3. Habib Sa‘dulla ijodiga oid ma‘ruza matnlari
4. Internet ma‘lumotlari (Ziyonet, Kitoblar.uz)